

2026-yil 9-fevral

Xushxabar: “Qizilqum fosforit kompleksi” O‘zbekiston korporativ voleybol kubogi g'olibi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-421-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Sport vazirligi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi hamda O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi tashabbusi bilan ijro etuvchi banklar, korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida 6-7-8-fevral kunlari voleybol bo‘yicha O‘zbekiston korporativ kubogi musobaqasi yuksak saviyada tashkil etildi.



Mazkur nufuzli musobaqa mamlakatimizda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, ish jamoalari oʻrtasida oʻzaro hamjihatlik va jamoaviy ruhni mustahkamlashga xizmat qildi.



Quvonarlisi, "Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ jamoasi musobaqa davomida yuqori mahorat, qat'iyat va jipslik namoyon etib, munosib ravishda faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.



"O'zkiyosanoat" AJ g'olib jamoani samimiy tabriklaydi va kelgusida ham yangi yutuqlar, bardavom muvaffaqiyatlar tilaydi!



source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-qizilqum-fosforit-kompleksi-o-zbekiston-korporativ>